

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

### **NE’MAT ARSLON ASARLARIDA RUHIY TASVIR**

**Laylo Hayitova,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent*

*davlat o‘zbek tili va adabiyoti*

*universiteti tayanch doktoranti*

*e-mail: laylohayitova91@gmail.com*

*tel: +99894 319-00-44*

**Annotatsiya.** Maqolada iste’dodli adib Ne’mat Arslon asarlarida qahramon ruhiyati qay tarzda yoritilishi, yozuvchi asarlarida badiiy psixologizmni hosil qiluvchi usul va vositalarning ishtiroki xususida so‘z yuritiladi. Adibning “Matematik hikoya”, “Shama” kabi uslub va tasvir jihatdan o‘ziga xos asarlari tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy psixologizm, obraz, xarakter, motiv, monolog, syujet, personaj ruhiyati.

**Аннотация.** В статье говорится о том, как освещается психика героя в произведениях талантливого писателя Немата Арслана, а также обсуждаются методы и средства, создающие художественную психологию в произведениях писателя. Анализируются такие уникальные произведения писателя, как «Математическая повесть», «Шама».

**Ключевые слова:** Художественная психология, образ, персонаж, мотив, монолог, сюжет, менталитет персонажа.

**Annotation.** The article talks about how the psyche of the hero is illuminated in the works of the talented writer Ne'mat Arslan, and the methods and tools that create artistic psychology in the writer's works are discussed. The writer's unique works such as "Mathematical Story", "Shama" are analyzed.

**Key words:** Artistic psychology, image, character, motive, monologue, plot, character mentality.

Inson ruhiyatining go‘zal tasviri har qanday badiiy asarning birlamchi shartidir. Ne’mat Arslonning original asarlaridan biri “Matematik hikoya” ruhiy tasvir o‘zgachaligi bilan ajralib turadi. Asar syujeti original, tasvir ham butunlay yangi deya olamiz. Badiiy adabiyotda makon va zamon tasviri asar tabiiyligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Adib “Matematik hikoya”da bir-biridan uzoq davrlar va olis makonlarni mahorat bilan birlashtiradi. Hikoya qahramoni- matematik olim. U necha yillab umrini Aljabrning yaralishi bilan Shashmaqom orasida aloqadorlik borligini isbot qilishga sarflaydi. Afsuski, olimning ilmiy ishi himoya jarayonida muvaffaqiyatsiz deb topiladi.

Ilm tarixi uchun bu voqeа unchalik ham yangilik emas. O‘z zamonida Mansur Hallojni ham hech kim tushunmadi. Lekin u kamolot uzra yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. Rajab Ali uchun matematika shunchaki raqamlar va bajariladigan amallar yig‘indisidan iborat emas. Ilm qahramonning hayoti mazmuniga aylanib ulgurgan. Doktorlik diplomi ham suvrat va ma’ni, shakl va mazmun uyg‘unligini ta’minlab turgan bir vosita. Diplomga birlamchi omil sifatida qarovchilar uchun uni kim olsa

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

olim, olmaganning so‘zi inobatga o‘tmaydi. O‘zim uchun bilsam bo‘ldi deya shahodat qog‘oziga e‘tiborsizlik ham yaramaydi. Zero bu suvrat taqozosi. Suvrat va ma’ni uyg‘un bo‘lgandagina muvozanat o‘z o‘rnida bo‘ladi. Rajab Ali o‘zi anglagan haqiqatni hamma qabul qiloladigan bir suvratda taqdim eta olmadi. Shuning uchun ham ilmiy jamoatchilik uni qabul qilolmagandir, ehtimol.

2000 raqamining ildiz ostiga olinib 0 ga tenglashtirilishi bir istehzo. Bu ish kimlar uchundir 0 ga teng bo‘lsa-da, tadqiqotchi uchun qilgan ishi hech qachon ahamiyatini yo‘qotmaydi. Har qanday ilm kishisi kabi Rajab Ali uchun ham bu yo‘lni bosib o‘tish oson kechgan emas edi va ishining himoyadan qaytishi ham qahramon qalbiga mislsiz iztirob solardi. Tadqiqotchining bu ishga sarflagan umri, mehnati, umidlari iztirobini adib yana bir matematik amal yordamida obrazlashtiradi: “...2000 raqamiga tikilib xayolga berildi bir muddat. Va go‘yo barcha baxtsizliklarga shu sana aybdordek, ilashimli xayol ta’sirida qo‘liga qizil siyohli qalam olib “2” raqamini darhol o‘zgartirdi va uni ildiz ostiga oldi. Endi taqvimda “0000” raqami turardi. – Behuda o‘tgan yillar ekvivalenti edi bu raqamlar.” [2:196]

Hikoya boshida ajoyib tasvir bor. Rajab Alining tushida Bissektrisagasovchi keladi va bu xonim onasi Gipotenuza bilan shu masalada bahsga kirishadi. Bu bir qarashda doktorant shunday berilib ishlayaptiki, natijada geometrik shakllar tushlarida ham tinchlik bermayapti degan birlamchi ma’noni yetakchi qilib ko‘rsatadi. Aslida esa bu figuralar tabiatи xususida kengroq mulohaza yuritilsa, muallif bu tush tasviriga katta ma’no yuklagan degan xulosa kelib chiqadi:

“– Jonginam, Bissektrisa! Qaysarlik qilma. Eshit. Ikkovidan birini tanla.  
– Menga yoqqani sizga yoqmasa, nima qilay?!  
– D ilingdagini ayt. – Katet tik.  
– Katet Tik?..deya savol nazari bilar qaradi Gipotenuza xonim.  
– Albatta, u menga yaqin. Eng muhimi u hamisha tik!  
– Qizim, Katet yotiqning sadoqatini ham o‘yla. Oyoqlaring ostida yotibdi bechora. –Shu yotganicha turmaydi, oyi, -istehzo aralash kului madmuazel Bissektrisa.”[2:183]

Ma’lumki, tush motivi badiiy psixologizmning eng asosiy vositalaridan biri. Bu motiv yozuvchiga badiiy psixologizmni mukammal ifoda etish imkonini beradi. “Matematik hikoya”da ham tush motivi qahramon ruhiy holatini to‘la ochib berolgan. Kitobxon bu tush tasviridan anglaydiki, Rajab Ali- matematika ilmi, uning amallari, figuralar olamida yashaydi, bu elementlarning har biri uning uchun bir jonli shaxsdek. Adib bu tush vositasida asarga o‘zining jamiyat va insoniy munosabatlar haqidagi qarashlarini kiritib o‘tadi. Chunki Rajab Ali anglagan samoviy haqiqat va u tuygan hissiyotlar bilan real borliq, asl muhit boshqa-boshqa. Asl yozuvchi hech

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

qachon jamiyat haqidagi o‘ylar, xalq ahvoli ruhiyasi va taqdiri haqidagi tashvishlardan holi ijod qilolmaydi. Jumladan, Ne’mat Arslon. “Yaxshi asar-g‘amning va dardning mahsuli. Dilida xalqning g‘ami, insoniyat dardi bo‘limgan ijodkor yengil ijodkor, uning vazni tosh bosmaydi va uning yaratgan asari ham xashakdek salmoqsiz, yengil bo‘ladi”- deb yozadi Ne’mat Arslon “Sangisopoltosh”da. [4:13]

Yuqoridagi parchada adib matematik elementlarni mahorat bilan obrazlashtiradi. Odamlar tabiatini figuralarga ko‘chiradi. Bissektrisa onasi istamayotgan nomzodlarga matematik tamoyillarga ko‘ra yaqinlashadi, nazarimizda. Ona nazariy qoidalar tarafdarimi? Yoki qiz umumqoidalarga qarshi chiqyaptimi?... Muhabbatda ham shunday qoida borki, sevib qoldingmi tamom. Mahbubning kamchiliklari ko‘z o‘ngingda bir qadar tabiat yuzini oppoq qor vaqtincha qoplagandagi manzara kabi namoyon bo‘ladi. Qalb o‘zi oqmi yoki uni vaqtincha yoqqan qor oqartirib turibdimi, keyin ma’lum bo‘ladi. Demak, muallif hayot falsafasini matematik ifodalagan.

Ba’zi tarixiy romanlarni o’qir ekanmiz, qahramonlarning o’y-kechinmalari anchayin sun’iy yaratilganday tuyuladi. Bu jihatdan N.Arslonda katta potensial borligi ko‘rinib turibdi. Ibn Sino, Beruniy, Ulug’bek kabi mutafakkirlarimiz haqida romanlar yozilgan bo‘lsa-da, ularda asosan o’sha davrga xos ijtimoiy muammolar yoritilishiga ko‘proq urg‘u berilgan. “Matematik hikoya”da esa shaxs ruhiyatini ichdan his qilishga urinish bor. Yozuvchi Xorazmiy hamda Aljabrni lotin tiliga o‘girgan tadqiqotchi – Pizanskiyning ahvoli ruhiyasidagi umumiyl holatlarni ko‘rsatib bera olgan. Qaysi yo‘nalishda bo‘lmasin haqiqiy tabiiy ijod shunga o’xshash kechadi.

Ne’mat Arslon adabiy eksperimentlardan cho‘chimaydigan ijodkor. Shuning uchundir, ehtimol, yozuvchining har bir asarida o‘ziga xos yangilik va badiiy topilmalar uchraydi. Aytaylik, Al-Xorazmiy Al-jabrday kashfiyotni yaratayotganda qay holatda edi? Bu juda qiziq tasavvur. Uni adabiyotga ko‘chirish, boshqa ijodkorlarni ham xuddi shu yo‘sin tasavvur qilib ko‘rish masalaga yangicha yondashuvlarni beradi.

Shashmaqomning Aljabr bilan bog‘liqligi chindan mavjudmidi yoki bu adib tasavvuri mahsulimi? Bu bizga qorong‘u. Ehtimol, matematikani musiqa bilan bog‘lovchi ko‘rinmas iplar bordir.

Bizningcha, matematikani musiqa bilan bog‘lash faraz xolos. Asarning asosig badiiy g‘oyasi bu emas, nazarimizda. Boshqacharoq, yangicha qarashni bizning jamiyat qabul qilolmaydi. Hamma sohada ham yangicha qarashlarni garchi ular to‘g‘ri bo‘lsa ham qabul qilolmaydigan konservativ ruhdagi kishilar ko‘p va bu ilm ahli uchun, ijodkor ahli uchun juda og‘riqli muammo.

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

“Hayotning ilgarilab borishida insondagi ruhiy madad kuchi va ma’naviy potensialning hal etuvchi ahamiyatini chuqur anglagan va hayotning bu ulkan qonuniyatini badiiy ijodga singdira bilgan san’atkorgina so‘z mulkida yangilik yarata oladi.” [6:32] E’tirof etish lozimki, Ne’mat Arslon ana shunday yozuvchi va u so‘z mulkida ko‘plab yangiliklarning muallifidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslilik lug’ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
2. Arslon N. Yozuvchi uchun atir. – Toshkent: Adabiyot, 2022.
3. Arslon N. Sangisopoltosh. “Yoshlik” jurnali, 2013. 12-son.
4. Umurov H. O‘zbek romanida psixologizm prinsiplari, shakllari va vositalari. O‘zbek adabiy tanqidi. – Toshkent: Turon-iqbol, 2011.
5. Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri. – Toshkent: O‘zbekiston, 1977.
6. Boboxonov M. Hozirgi o‘zbek romanlari strukturasida badiiy psixologizm muammosi. Dissertatsiya, SamDU, 2023.
7. Tulabayeva R. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. Dissertatsiya, ToshDO‘TAU. – Toshkent, 2019.